

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ
ВАЗИРЛИГИ**

БУХОРО МУҲАНДИСЛИК -ТЕХНОЛОГИЯ ИНСТИТУТИ

“Ўзбекистон тарихи” кафедраси

Салохов А.Қ

***«БУДДАВИЙЛИК ДИНИ»
мавзудан маърузалар матни***

БУХОРО-2016 й.

Такризчилар:

БухДУ доценти А.Болтаев
Бух МТИ Ўзбекистон тарихи доценти
Э.Зоиров

Тузувчи:

Ўзбекистон тарихи катта ўқитувчиси
А.Қ.Салохов

Ушбу маърузалар матни «Ўзбекистон тарихи» кафедраси йиғилишида кўриб чиқилди ва маъқулланди.

Баённома №__ «__» _____ 2016 й.

Маърузалар матни институт ўқув-услубий кенгаши томонидан тасдиқланиб, чоп этишга рухсат этилди.

Баённома №__ «__» _____ 2016 й.

Мазкур ўқув дастури – Барча бакалаврат йўналишлари учун мўлжалланган.

Маърузалар матнида . Буддавийлик динининг тарихи, таълимоти, йўналиши, манбалари ва тарқалиши ҳақида маълумотлар ва тарқатма материаллар берилган.

Текст лекций содержат материалы по истории, учении, направлениях, источниках и распространении Буддизма.

The text of the lectures contain materials on the history, teachings, directions, sources and propagation of Buddhism.

MAVZU: *Buddaviylik dini.*

1. **Buddaviylik asoschisining shaxsi.**
2. **“Pancha shila” – axloq normalari.**
3. **Meditatsiya – buddaviylikning muhim qoidalari.**
- 4 **Buddizmning tarqalishi.**

Tayanch iboralar:

Siddxartxa Gautama, Budda ("Nurlangan"), kshatriylar, braxmanlar, Pancha shila, Meditatsiya, Tripitaka, Vinaya-pitaka, Sutta-pitaka, Siddxartxa, Maxayana, Xinayana, Dxarma, Karma, Nirvana.

Buddaviylik dini bundan salkam 2600 yil avval shimoli-sharkiy Hindistonda vujudga kelgan. Uning asoschisi shaxzoda Siddxartxa Gautamadir. Siddxartxa Gautama vafotidan so'ng Budda ("Nurlangan", "Oliy xakikatga erishgan", "Hakikat ijodkori") deb atalgan. Buddaviylik dinining nomi ana shundan olingan.

Yangi din - buddaviylik Hindistonda keng tarkala boshlagan. Chunki, u jamiyat turli tabakalarining Manfaatiga javob berardi. Masalan, kshatriylar uchun buddaviylik braxmanlarining hukmron mavqeiga, imtiyozlariga, shuningdek, kastaviy kamsitishlariga qarshi qurashda o'tkir qurol bo'lib xizmat qilardi.

Oddiy mehnatkash aholi xalq ommasiga esa bu din o'zlarining og'ir axvollaridan qutulish yo'llarini ko'rsatgandek bo'lgan.

Ayni paytda, bu din ta'limotidagi "Kuchli istamaslik" to'g'risidagi qoida hukmron sulolalar manfaatiga ham tola javob bergan. Chunki, bu qoida ularga o'z fuqarolarini itoatda tutishlarida katta omil xisoblanardi. Sxuning uchun ular ham bu dinni ko'llab-quvvatlaganlar. Xususan, Mauriya sulolasi hukmronlaridan biri - podsho Ashoka davrida buddaviylik davlat dini deb e'lon kilingan.

Siddxartxa (topshrikni bajaruvchi) Gautama miloddan avvalgi 563 - yilda Hindistonning shimoli-sharkiy kismida (hozirgi Nepalning janubida) podsho xonadonida tug'ilgan (ba'zi manbalarda miloddan avvalgi 623-yilda tug'ilganligi ham kayd etilgan). Uning otasi Suddxodan * Dunyo dinlari tarixidan. O'kuv ko'llanmasi.

Hindistonning shimoli-sharkiy kismida sakiylar sulolasi asos slogan Kapi Lavasta podsholigining xukmdori bo'lgan.

Manbalarda Suddxodan konun podshosi, konun bilan boshkaruvchi xukmdor, deb kayd etilgan.

Sakiylar sulolasining biron bir xukmdori Suddxodandek o'z fukarosi orasida katta xurmatga sazovor bo'lmagan. U bunday katta xurmat-obro'ga adolat posboni bo'lganligi uchun erishgan. Sakiylar xonadonida o'tmishda Gotama nomli buyuk mutafakkir o'tgan. Siddxartxa uning sharafiga Gautama (Gotama avlodi) deb atalgan.

Siddxartxaning onasi Mayya ismli ayol bo'lib, u Siddxartxa tug'ilgach, 7 kundan so'ng vafot etgan. Yetim kolgan Siddxartxani xolasi Maxaprajpati tarbiyalagan. Siddxartxa barcha shaxzodalarga xos ta'lim -tarbiya olgan. Podsho Suddxodan o'g'lining jamiyat xayotining salbiy tomonlarini ko'rmasdan yashashini istagan. Sxuning uchun ham unga shoxona xayot yaratib Mbergan. U dunyoviy ruxda

tarbiyalana boshlagan. 16 yoshdan uylantirib ko'yilgan. Ko'p o'tmay, Siddxartxa o'g'illik bo'lgan. Siddxartxa 22 yoshigacha ana shunday shoxona xayot kechirgan.

Bir kuni Siddxartxa sayr etgani ko'chaga chiqqanida xayot u o'ylagandek emasligining guvoxi bo'lgan. Chunonchi, u yo'lda butun tanasiga yara toshib ketgan cholni, kasal yotgan bir odamni, bir oz yorgach esa, o'lib yotgan odam jasadini ko'radi. Bu xodisalar uning dunyokarashini butunlay o'zgartirib roboradi.

Sxu tarika, Siddxartxa jonzotlarning mukarrarazob chekishini bilib oladi. Endi uning xayolini xayotning moxiyati, mazmuni, mashakkatlari xakidagi o'ylar egallaydi. U bu xayot bexuda degan xulosaga keladi va bir kuni xech kimga bildirmay saroyini tark etadi. Bu dunyo lazzatlaridan voz kechib tarkidunyochilik xayotini boshlaydi. Ayni paytda, u odamlarni xayot azob - uqubatlaridan kutkarish yo'llarini izlaydi. 7 yil davomida mavjud mukaddas kitoblarni o'rganadi. Ular asosida mushoxada ioritadi va nixoyat, najot yo'lini topadi. U bu yo'lni M"xayot xakikati" deb ataydi.

29 yoshli Siddxartxa shaxar hamda kishloklar kezib, bu yo'l moxiyatini targ'ib etishga kirishadi. Siddxartxa o'z ta'limotining asosiy qoidalarini "To'rt oliy xakikat" nomi bilan bayon etadi. U Hindistonda birinchi monaxlik jamoasini tashkil etgan. Bu jamoa yangi din -buddaviylik ta'limotini targ'ib etishda juda katta rol o'ynagan. Siddxartxa Gautama 80 yoshida vafor etgan.

Buddaviylik dinining muqaddas kitobi - "Tripitaka" ("Uch savat donolik") deb ataladi. Rivoyatlarga ko'ra, Siddxartxa o'z ta'limotini mazmuniga ko'ra uchga ajratgan va uch savatga joylashtirgan. Ularning xar biriga aloxida nom ham berilgan. Bular:

1. Vinoyapitaka (Axlokiy me'yorlar)
2. Suttapitaka (Duolar)
3. Abxidhammapitaka (Diniy-falsafiy masalalar bayoni)dir. Buddaviylikning jaxon diniga aylanishi.

Podsho Ashoka xukmronligi (mil. av. 269-232 yillar) davrida Hindistonda davlat diniga aylangan buddaviylik keyinchalik jaxonning boshka davlatlariga ham tarkala boshlagan. Xususan, Kushonlar xukmronligi davrida bu din bizning o'lkamizga ham kirib kelgan. Bu sulola, xatto buddaviylikka davlat dini makomini bergan.

Buddaviylik 900 yil davomida Hindistonda ravnak topdi va gullab-yashnadi (mil. av. 250-yildan milodning 650-yilligacha). 650-yildan boshlab uning bu yerda nufuzi pasaya bordi. Va nixoyat, buddaviylik XII asr oxiri - XIII asr boshlarida Hindistondan sikib chikarildi. Bunga Hindistonning shimolida musulmon sulolalari xukmronligining o'matilishi, Hindistonning boshka kismalarida buddaviylik dinining tola karor topganligi sabab bo'ldi. Birok, buddaviylik yo'k bo'lib ketmadi. Aksincha, u ikki okimga bo'lingan xolda yashashda davom etdi. Bu ikki okimning biri Xinayana (najot topishning tor yo'li), Tikkinchisi esa Maxayana (najot topishning keng yo'li) deb ataladi.

Xinayana buddaviylikning o'zgarishsiz ilk ta'limotiga amal kilshni yoklab chikadi. Maxayana okimi esa, buddaviylikning zamon ruxiga moslashtirilgan ko'rinishidir.

Xinayana tarafdorlari xayot azob-uqubatlaridan monaxlik jamoasiga a'zo bo'lgalar xalos bo'la oladi, deb xisoblaydilar.

Maxayana tarafdorlari esa Siddxartxa o'gitlariga amal kiluvchi, xudoga iltijo kiluvchi, monaxlarga moddiy yordam beruvchi, dunyoviy ishlar bilan shug'ullanuvchi xar bir kishi ham najot topishi mumkin, deb xisoblaydilar.

Buddaviylik dastlab xudosiz din edi. Maxayana tarafdorlari xudosiz dinning odamlarga tushunarsiz Tbo'lishini xisobga olganlar. Sxuning uchun ular Siddxartxani xudo deb e'lon kilganlar. Sxu tarika unga sig'inish karor topgan. Ayni paytda, ular buddaviylikka jannat to'g'risidagi talimotni ko'shganlar. Bu omil buddaviylikning jaxon bo'ylab yanada kengrok tarkalishiga yo'l ochgan. U Osiyoning boshka davlatlarida, Rossiyaning Buryatiya, Kolmik va Tuva Respublikalarida keng karor topa bordi.

Buddaviylik XIX-XX asrlarda Amerika va Yevropa davlatlarida ham o'z jamoalarini vujudga keltira oldi. Hozirgi kunda yer iozi axolisining 500 milliondan ortig'i shu dinga e'tikod kiladi. Osiyoning Sxri Lanka, Birma, Tailand, Laos, Mo'g'uliston, Kambodja, Vyetnam, Butan, Nepal, YAponiya va Koreya davlatlarida asosiy din xisoblanadi. Maxayananing xozirgi davrdagi eng muxim ko'rinishi - lamalikdir. Lamalik XIV asr oxiri - XV asr boshlarida Tibetda vujudga kelgan (Tibet xozirgi Xitoy tarkibida).

Lama - oily budda roxibi. Buddaviylikning barcha akidalarini kabul kilgan lamalikda inson fakat Lama yordamidagina najot topadi. Gunoxlaridan poklanadi. Ayni paytda, lamalik Lamalarsiz oddiy insonning jannatga tushib nirvanaga o'tishi u yokda tursin, xatto qayta tug'ilganlaridan so'ng ham bu dunyoda xech narsaga erisha olmaydilar, deb ta'lim beradilar. 1950 yilda Sxri-Lanka davlatida buddaviylarning "Jaxon buddaviylari birodarligi" tashkiloti tuzildi. 1956-yilda esa dunyo buddaviylari o'z dinlarining 2500 yilligni nishonladilar. Buddaviylik ta'limoti, marosim va bayramlari To'rt oliy xakikat Buddaviylik ta'limoti (bu ta'limot - "Dxarma" deb ataladi)ning asoschisi Budda yaratgan kuyidagi "to'rt oliy xakikat" tashkil etadi:

1. Azob-uqubatning mavjudligi haqidagi ta'limot. Bu ta'limotga ko'ra, dunyodagi xar bir narsa, shu jumladan, tug'ilmok, yashamok, kasallik, o'lim va boshkalar azob-uqubatdir.

2. Azob-uqubatlarning sabablari mavjudligi haqidagi ta'limot.

Bu ta'limotga ko'ra azob-uqubatlarning sababi - kishilarning istak-xoxishlari, yashashga va baxtga intilishlari, xayotga tashnaliklaridir. Bu xakda Budda bunday deganligi manbalarda kayd etilgan: "Tashnalikdan mexribonlik kelib chikadi, mexribonlikdan borlik iozaga keladi, borlikdan tug'ilish iozaga keladi, tug'ilishdan esa karilik va o'lim, baxtsizlik, g'am-g'ussa, Mazob-uqubat, xo'rlik, umidsizlik paydo bo'ladi. Hamma azob-uqubatlar yig'indisining kelib chikishi shundaydir".

3. Azob-uqubatlarning bartaraf bo'lishi xakidagi ta'limot.

Har kanday xayot, - deb ta'lim beradi Budda, - barcha mavjudotga azob beruvchi yomonlikdir. Yomonlik va azob-uqubatlarning sababi - insonning va barcjxa tirik mavjudotlarning bu dunyoga bog'langanligi, ko'ngil ko'yganligidir. Har kanday insoniy tuyg'u, xissiyot, extiros, istak azob-uqubatni chukurlashtiradi va yana daxshatlirok tarzda qayta tug'ilishga olib Mkeladi. Bundan kutulmok uchun xayotga chankoklikdan, turmush ko'ngilxushlilaridan, Mlazzatlaridan, xokimiyatga va boylikka intilishdan voz kechish lozim, Ayni paytda, yerdagi xayot xodisalarining barchasi bekaror va o'tkinchi ekanligini faxmlamok ham zarur.

4. Azob-uqubatlardan kutulishning najot yo'li borligi haqidagi ta'limot. Bu ta'limot mazmunini najotning 8 olijanob yo'li tashkil etadi:

a) to'g'ri maslak, to'g'ri nuktai nazar. Bu - donolik bo'lib, odamlarga xayotning 40 oliy xakikatini tushunib olishga yordam beradi;

b) to'g'ri niyat. Bu - barcha tirik mavjudotga do'stona munosabatda bo'lishni, azob-uqubat Mtortayotganlarga hamdard bo'lishni, boshkalarning muvaffakiyatlariga beg'araz munosabatda bo'lishni shuningdek, xar kanday sharoitda ham ruxan vazmin bo'lishni anglatar edi;

d) to'g'ri iurish-turish. Bu - o'g'irlik kilmaslikni, tirik mavjudotni, shu jumladan, odam o'ldirmaslikni, nokonuniy nikoxda bo'lmaslikni, mast kiluvchi ichimlik ichmaslikni hamda yolg'on gapirmaslikni anglatgan;

e) to'g'ri so'z. Bu - yolg'on gapirishdan, tuxmat-bo'xtonlardan, fisk-fasod suxbatlardan va mish-mishlardan tiyilishni anglatgan;

g) yashashning to'g'ri daromad manbaiga ega bo'lish. Bu - kurol, mast kiluvchi ichimliklar sotishdan, shuningdek, xayvonlarni o'ldirishdan, foxishalikdan tiyilishni anglatgan.

x) to'g'ri hatti-harakat. Bu - o'z ongini inson uchun zarar keltiruvchi o'zy-fikrlardan xoli kilish va foyda keltiruvchi o'y-fikrlar bilan yashashni anglatgan;

i) to'g'ri xotirlash; Bu - insonning o'z tanasining, xissiyotining, ruxiy xolatining bir

me'yorda faoliyat ko'rsatishiga jiddiy e'tibor bilan karashini anglatgan. Bu narsa insonga Budda axlokiy tamoyillariga amal kilib yashashida katta rol o'ynaydi, deb xisoblanadi. j) fikr-e'tiborni to'g'ri narsalarga karatish. Bu - insonga Budda ta'limoti qoidalaridan chalg'imaslik imkonini beradi.

Bu dunyo azob-uqubatlardan xalos bo'lishning najot yo'li mazmuni ana shunday. Birok, buddaviylik ta'limotiga ko'ra, Najotning bu olijanob sakkizlik yo'li monaxlik (takvodorlik) xayot tarzini ixtiyor etganlargagina naasib etardi.

Monaxlar (takvodorlar) - bu dunyo xayotiy extiyojlaridan, lazzatlaridan voz kechib yashovchilardir.

Budda xayotlik chog'ida monaxlik jamoasini tuzgan va u "Sangxi" deb atalgan. To'g'ri, inson uchun xayotda xayotiy extiyojlardan, lazzatlardan voz kechib yashash kiyin, albatta. Sunday bo'lsa-da, monaxlik xayotini targ'ib etgan Budda ta'limoti juda tez sur'atlar bilan tarkalgan. Buddaviylik dini esa katta shuxrat kozongan. Buning birinchi sababi - buddaviylikning kastachilik tartiblarini inkor etganligi; ikkinchi sababi esa, tarkidunyo kilganlar bilan dunyoviy xayot kechirayotganlarning bir-biridan mutlako ajratib tashlanmaganligi Medi. Takvodor monaxlar bemalol dunyoviy xayot kechirayotganlar bilan mulokotda bo'la olganlar. "Sangxi" a'zolari dunyoviy kishilarga Budda ta'limotini o'rgatgan bo'lsalar, o'z navbatida, dunyoviy xayot kechiruvchilar tarkidunyo kilganlarga Mo'zik-ovkat, kiyim-kechak yetkazib erganlar. Boybadavlat kishilaresa ularga boshpana ham kurib berganlar. Bu savobli ishlari bilan ular kelgusida xozirgi xolatlaridan yaxshirok bo'lib tug'ilishga umid kilganlar. Najotning "olijanob sakkizlik yo'li"ga amal kilgan odam oxir-okibatda ioksak kamolotga erishgan. IOksak kamolotga erishgan odam deyilganda - chin xakikatni anglab yetgan (Buddaning "to'rt

oliy xakikaf'ini) tushunilgan. Buddaviylikda ular arxat deb atalgan. Ana shunday monax avliyo nirvanaga o'ta olgan. Buddaviylikning olam to'g'risidagi ta'limoti

Buddaviylik ta'limotiga ko'ra - olam uch boskichli. Uning birinchisi - eng yuqorisi nirvanadir.

Nirvana - mutlok osoyishtalik xukm suradigan olamdir. U yerda inson barcha turmush tashvishlaridan xalos bo'ladi. Uning xayotiy istaklari ham, tuyg'ulari ham, extirolari ham bo'lmaydi. Bu olamda inson qayta tug'ilish azoblaridan kutuladi. Jonning ko'chib yurishi to'xtaydi. Binobarin, boshka dinlardan farkli o'larok, buddaviylikda jon abadiy emas. Ikkinchisi olam - bu, jannatdir.

Buddaviylik - bu olamda bodxisatvalar yashaydi, deb ta'lim beradi. Xo'sh, bodxisatvalar kinlar? Bodxisatvalar - oliy kamolotga erishgan va shu tufayli nirvanaga ko'tarilish xukukiga ega bo'lgan insonlardir. Ularda bodxisatva bo'la olmagan insonlarga achinish xissiyoti kuchli bo'ladi. Binobarin, ular bunday insonlarga najot yo'lini topishda yordam berishni istaydilar. Shu maksad yo'lida ular nirvanaga ko'tarilish xukukidan voz kechadilar.

Buddaviylikdagi uchinchi olam - bu, yer yuzi olamidir. Bu odamlar va boshka barcha yirik mavjudotlar, o'simliklar olamidir. Bu olamda rux kafasda yashaydi. U kafasdan kutulishga va yuqori olamga ko'tarilishga harakat qiladi. Birok, u o'z-o'zidan ko'tarila olmaydi. U odamlarning savobli ishlari tufayligina ko'tarilishi mumkin. Odamlar buddaviylikka e'tikod qilsalar bir qancha qayta tug'ilishlardan so'ng ikkinchi olamga ko'tarilishi mumkin. Yomon odamlarning ruxlari quyi dunyoda azoblanib, qafas ichida qolaveradi.

Agar inson nafs aldanishlariga berilib ketsa, uning ruhi bir necha qayta tug'ilishlardan so'ng yer ostidagi do'zaxga tushib ketadi. Buddaviylik ta'limotiga ko'ra, o'lim insonni xayot azobu qubatlardan xalos eta olmaydi. Chunki, o'limdan keyin ham insonni qayta tug'ilish kutadi. Bu dunyoning (sansara) bunday yaramas og'ir azob-uqubatlardan fakatgina uzok qayta tug'ilishlar azob-uqubatlarini yengi bo'tib, arxat (oliy kamolotga yetgan) xolatiga erishgan kishilargina xalos bo'lishlari mumkin.

Arxat xolatiga erishish va undan nirvanaga o'tishning yagona yo'li najotning olijanob sakkizlik yo'lidan insonning o'z kuchiga tayangan xolda ongli harakat kilishidir. Agar insonning o'zi harakat kilmasa, uni xech kim va xech narsa bu dunyo azob-uqubatlardan xalos kilib, nirvanaga o'tishiga yordam bera olmaydi. Budda insonlarni xakikatdan xabardor kilgan va azob-uqubatlardan xalos bo'lishning to'g'ri yo'lini ko'rsatgan, xolos. Buddaviylik ta'limoti xakida yuqorida aytilganlardan kelib chikadigan xulosa shuki, uning asosiy mazmuni barcha mavjudotlarga (narsalarga) muxabbat, raxm-shafkatlilik bilan karashni targ'ib etish va akl farmoniga kat'iy bo'ysunishdir. Bilimlar xudojo'ylikka xizmat kilishi kerak. Ular azob-uqubatlardan xalos bo'lish uchun zarur.

Budda o'z o'limi oldidan odamlarga karata bunday degan ekan, deyiladi manbalarda: "Ey odamlar, hamma yaratilgan narsalar buzilishga maxkum kilingan. Kuchingiz boricha kutkarishga intiling".

Buddaviylik marosimlari ichida ertalbki va kechki ibodat xar kuni ado etiladi. Ibodat davomida duolar Ko'kiladi va sajda kilinadi. Ibodat Buddaning tasviriga karab bajariladi. Bunda Budda tasviri atrofiga gul ko'yiladi, shamlar yonib, muattar xid taralib

turadi. Ajoyib ochilib turgan gulning bir oz vaktdan so'ng so'lishi ibodatchiga xayotning o'tkinchi ekanligini, muattar xid esa Buddaga sodiklarning go'zal xulk-atvori bo'lishi lozimligini eslatib turadi. Shamlaming olovi esa nurlanganlik ramzi xisoblanadi.

Dunyoviy xayot kechiruvchi buddaviylarning kundalik asosiy marosimi - bu, monaxlarga ozik-ovqat keltirishdir.

Buddaviylarning yana bir marosimi "tiyilish" kuni deb ataladi. Bu marosim buddaviylarga o'z dinlariga e'tikodlarini yanada mustaxkamlashga, monaxlar uchun intizomni va o'zaro bir-birini tushunishni yanada mustaxkamlashga xizmat kiladi. Bunday kun oyda 2 marta o'tkaziladi. Ularda najotning sakkizlik yo'li talablari, Dxarma akidalarini takrorlanadi. Ayni paytda, bu marosim ijrosi davomida monaxlar dunyoviy xayot kechiruvchilar ustiga suv sepadilar. Bu monaxlarning dunyoviy xayot kechiruvchilar bilan o'zlaridagi Tyaxshi xislatlarni bo'lishish niyatlarining ramzi xisoblanadi.

Dunyoviy xayot kechiruvchilar esa yerga suv sepadilar. Bu - monaxlarning dunyoviy xayot Mkechiruvchilarga bildirgan yaxshi niyatlarining ajdodlar bilan baham ko'rayotganlik belgisidir.

Buddaviylikda, shuningdek, dunyoga kelishni, balog'at yoshini nishonlash, nikox, yangi uyga ko'chib Mo'tish, ajdodlarni xotirlash va dafn etish kabi marosimlar mavjud. Boshka dinlarda Mbo'lganidek, buddaviylikning ham kator bayramlari bor. Bular - YAngi yil hamda Buddaning tug'ilgan, nurlangan va vafot etgan kunlari bayramlaridir. Buddaviylikda yangi yilning boshlanishi - xar bir buddaviy uchun o'z axlokiy hatti-harakatlari taxlil kilish, poklanish va xayrli ishlarni bajo keltirish xakida kayg'urish vakti Mhamdir. Bu bayram aprel oyining o'rtalalarida nishonlanadi va 2-3 kun davom etadi.

YAngi yil nishonlanayotgan kunlarda buddaviylar Buddani, avliyolarni, ajdodlarni eslaydilar. Eslash Mbelgisi sifatida tomchilatib suv sepadilar. Suv sepib - ayni paytda yomg'ir chakirish vositasi hamda xotirjam xayot belgisidir.

1. Buddaviylik - uchta dunyo dinlari ichida eng qadimiysi xisoblanib, eramizdan avvalgi VI - V asrlarda Xindistonda yozaga kelgan. Bu dinga e'tiqod qiluvchilar asosan Janubiy, Janubiy SHarqiy va SHarqiy Osiyo mamlakatlarida, SHri Lanka, Xindiston, Nepal, Butan, Xitoy, Singapur, Malayziya, Mongoliya, Koreya, V'etnam, yaponiya, Kombodje, Birma, Tayland, Laosda va qisman Evropa va Amerika qit'alarida, Rossiyaning shimoliy mintaqalari - Buryatiya, Qalmiqistonda istiqomat qiladilar.

Xozirgi kunda dunyoda Buddizmga e'tiqod qiluvchilar soni qanchaligi aniqlanmagan, chunki ko'pgina mamlakatlar xuquq normalariga ko'ra qaysi dinga e'tiqod qiluvchilar soni qancha deb xisobot ishlari olib borilmaydi. Biroq taxminan olinganda xozirgi kunda dunyoda buddistlar soni 750 mln.ga yaqin bo'lib, ulardan 1 mln.ga yaqini monaxlardir.

Buddizm bundan 2500 yildan avvalroq Xindistonda diniy falsafiy ta'limot sifatida vujudga kelib, unda ko'plab qonuniy manbalar va ko'p sonli diniy yo'nalishlar mavjuddir.

Buddizmning turli millatlar tomonidan keng qabul qilinishi va uning keng doirada tarqalib ketishining sababi uning turli milliy va diniy an'analar bilan kirisha olishi

bo'lib, bu narsa Buddizmning xayotning barcha soxalari, jumladan, diniy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy qatlamlarga kirib borishiga sabab bo'ldi.

Buddizmni din yoki falsafa, ideologiya yoki madaniyat qonunlari to'plami yoki xayot tarzi deb baxolash mumkin.

Xozirgi buddizmga e'tiqod qilib kelayotgan sharq mamlakatlaridagi buddizm ta'limotini o'rganish u erdagi siyosiy-iqtisodiy, ma'naviy madaniyatini tushunishning asosiy omillaridan xisoblanadi. Bu davlatlarda buddizm qoida va an'analari buddizmga e'tiqod qiluvchilar nazarida markaziy xukumat qonunlaridan ko'ra ustun turadi. Bu narsa zahirida buddizmning potentsial kuchi yotadi.

Buddizm asoschisining shaxsi. Buddizm asoschisi xaqiqiy tarixiy shaxsdir. Bu ko'plab buddizm bilan shug'ullangan tadqiqoti olimlar bizgacha etib kelgan manbalar asosida isbot qilganlar. Buddizm asoschisi xaqida xabar beruvchi fol'klor va badiiy adabiyotlar uni Siddxarta, Gautama, SHakyamuni, Budda, Tadxagata, Djipa, Bxagavan kabi ismlar bilan zikr etadilar. Bu ismlarning ma'nolari quyidagicha: Siddxartxa - shaxsiy ismi, Gautama - urug' ismi, SHak'yamuni - shaklar yoki shakiya qabilasidan chiqqan donishmand, Budda - nurlangan, Tadxagata - shunday qilib shunday ketgan, Djina - g'olib, Bxagavan - tantana qiluvchi. Bu ismlar ichida eng mashxuri Budda ismi bo'lib, shu ismdan uning dinga buddizm nomi berilgan.

Xozirgi kunda Buddaning beshta biografiyasi ma'lumdir: "Maxavostu" - eramizning II asrida yozilgan, "Lalitavistara" - eramizning II-III asrlarida yozilgan, "Buddaxacharita" - Budda faylasuflaridan biri Ashvagxoshey tomonidan eramizning I-II asrlarida yaratilgan, "Nidanakatxa" - eramizning I asrida yozilgan va "Abnixishkramansutra".

Bu biografiyalar orasidagi asosiy ziddiyat Buddaning qaysi yillarda yashaganligi xususidadir. Ular eramizdan avvalgi IX-III asrlar orasidagi turli muddatlarni ko'rsatadilar. Rasmiy buddizm xisobiga ko'ra esa Butama - Budda er. av. 623 yilda tug'ilib, 544 yilda vafot etgan. Biroq, ko'pchilik tadqiqotchilar uning tug'ilishi er. av. 564 yilda, o'limi esa 483 yilda deb xisoblaydilar. Ba'zan 560 - 480 deb to'liq sonlar bilan ko'rsatadilar.

IOqorida zikr qilingan biografiyalarda Buddaning xaqiqiy xayoti bilan uning afsonaviy xayoti o'zaro qorishib ketgan.

Siddxartxa SHak'ya qabilasining podshoxlaridan biri SHuddxodananing o'g'li edi. Uning saroyi Ximolay tog'lari etagida Kapilavasti degan qishloqda bo'lgan. (Xozirda Nepal xududida). Onasi - malika Mayya. Podshox o'g'lini orzu xavaslar og'ushida tarbiyalar, uni xech bir kamchiliksiz katta qiladi. Ulg'ayib qo'shni podshoxlardan birining qizi YAshadxaraga uylanadi va o'g'il ko'rib, unga Raxula deb ism qo'yadi.

Xech bir qiyinchilik va kamchilik ko'rmay o'sgan bola Siddxarta ittifiqo qarigan cholni, bemorni, og'ir mexnatli bir roxibni uchratadi. Bundan qattiq ta'sirlagan shaxzoda insoniyatni qiyinchilik va azobdan qutqarish yo'llarini axtarib saroyini tashlab ketadi. Bu vaqtda u 30 yoshda edi. U beshta roxibga ko'shilib, ular bilan qishloqma-qishloq kezib yuradi. Ko'p vaqt bu roxiblarga hamroxlik qilib, ularning yo'llarida ma'lum maqsad yo'qligini va bu yo'l o'z oldiga qo'ygan maqsadi - insoniyatni azob uqubatdan qutqarishga olib bormasligini anglaydi va roxiblar jamoasidan ajraladi.

U chakalakzor o'rmonlarda kezib, charchab bir daraxti tagida dam olish uchun o'tiradi va o'ziga toki xaqiqatni topmaguncha shu erdan turmaslikni va'da beradi.

Bu o'tirishning 49 kuni uni qalbidan "Sen xaqiqatni topding" degan sado keladi. SHu paytda uning ko'z oldida butun borliq namoyon bo'ladi. U hamma joyda shoshilinch qayoqqadir intilishni ko'radi. Xech bir joyda osudalik yo'q edi. Xayot nixoyasiz uzoqlikni ko'zlab o'tib ketayotgan edi. Inson aqli etmas bir kuch. Trishna - yashash, mavjud bo'lish umidi barchani tinchini buzari, xalok qiladi va yana qayta yaratadi edi. Mana endi Buddha kimga qarshi kurashish kerakligini angladi. SHu ondan u Buddha - nurlangan deb ataldi. U tagida o'tirgan daraxt esa - nurlangan daraxt deb atala boshladi.

Budda o'zining birinchi da'vatini Varanasi yaqinidagi Rishipatana bog'ida, o'zining besh rohib do'stlariga qildi va o'shalar uning birinchi shogirdlari bo'ldilar.

SHu kundan boshlab Buddha o'z shogirdlari bilan qishloqma-qishloq yurib o'z ta'limotini tarqatib o'ziga yangi izdoshlar orttiradi. Buddha 40 yil davomida o'z ta'limotini Xindistonning turli joylariga etkazadi va 80 yoshida Kushtnagara degan joyda dunyodan o'tdi. Uning jasadini xind udumiga ko'ra u erda kuydirilib, uning xoki 8 ta budda jamoalariga bo'lib ijoborildi va xar bir jamoa uni dafn etgan joyida ibodatxona barpo etdi.

Buddaning xayoti xaqida turli afsonalar ham to'qilgan. Bu afsonalarda aytilishicha, Buddha ko'p yillar davomida er yozidagi turli mavjudotlar qiyofasida qayta tug'ilgan: 84 marta ruxoniy, 58 marta podshox, 24 marta rohib, 13 marta savdogar, 18 marta maymun, 12 marta tovuq, 8 marta g'oz, 6 marta fil shuningdek baliq, qurbaqa, kalamush, quyon kabi qiyofalarda qayta tug'ilgan. Jami 550 marta qayta tug'ilgan. U doimo qaerda, qay qiyofada tug'ilishini o'ziga o'zi belgilagan.

So'nggi marta uni xudolar insoniyatni to'g'ri yo'lga boshlashi uchun inson qiyofasida yaratganlar. Bu afsonalarning ba'zilariga ko'ra er yozida Gautamaga qadar 6 ta budda o'tgan. SHuning uchun buddizmning ba'zi muqaddas joylarida 7 ta ibodatxona barpo etilgan. 7 ta Botxa daraxti o'tkazilgan. Ba'zi afsonalar 24 ta Buddha avlodi o'tgan desa, ba'zilar minglab Buddalar o'tgan deb da'vo qiladi.

3. Buddizm ta'limoti. Buddizm qadimiy xind diniy - falsafiy ta'limotlari asosida vujudga kelgan, amaliyot va nazariyotdan iborat diniy sistemadir. Uning asosi "Xayot - bu azob, uqubatdir" va "najot yo'li mavjud" degan g'oyadir. Buddizm qonuniyatlariga ko'ra inson o'ziga moslashgan mavjudot bo'lib, o'zida tug'iladi, o'zini o'zi xalok qiladi yoki qutqaradi. Bu narsa Buddaning ilk da'vatida mujassamlashgan 4 xaqiqatda o'z ifodasini topgan.

Birinchi xaqiqat - "Azob uqubat mavjuddir". Xar bir tirik jon boshidan kechiradi, shuning uchun xar qanday xayot - qiynoq, azob-uqubatdir.

Tug'ilish - qiynoq, kasallik - qiynoq, o'lim - qiynoq, yomon narsaga duch kelish - qiynoq, yaxshi narsadan ayrilish - qiynoq, yomon narsadan ayrilish - qiynoq, o'zi xoxlagan narsaga ega bo'lmaslik - qiynoq. Dunyo tuzilishining asosiy qonuni bir-biriga bog'liqlik. Xech bir narsa ma'lum sababsiz yaralmaydi. Lekin xar bir xodisa yoki harakatning birlamchi sababini aniqlash mumkin emas. SHuning uchun buddizm dunyoni shu xolicha qabul qilishga chaqiradi.

Buddizm ta'limotiga ko'ra, xar qanday narsa yoki xodisa u xox moddiy yoki ma'naviy bo'lsin Dxarma (element)lardan tuzilgan. Bu elementlar o'z xususiyatiga

ko'ra harakatsiz bo'lib, ularni harakatlantiruvchi kuch insonning xayollar va so'zlaridir. ob'ektiv xaqiqat bu doimiy ravishda o'zgarib turuvchi Dxarmalar oqimidir. Harakatdagi Dxarmalar mavjudligining 5 formasini yaratadi: tana, sezgi, xis-tuyg'u, harakat, anglash. Bu besh forma insonni tashkil qiladi. Inson ular yordamida yashaydi va borliq bilan aloqa bo'ladi, yaxshi yoki yomon ishlarni bajaradi. Bu narsa insonning o'limi bilan tugallanadi. Insonni tashkil qiluvchi besh forma (skandx) o'z navbatida qayta tug'iladi. yangi tananing xususiyatlari asos bo'luvchi besh natijani beradi: faoliyat, gumroxlik, xoxish, istak va norma. Bu protsess "xayot g'ildiragi"ni tashkil qiladi. "Xayot g'ildiragi"da doimiy ravishda aylanib, inson abadiy qiynoqqa duchor bo'ladi.

Ikkinchi xaqiqat - "qiynoqlarning sabablari mavjuddir".

Inson moddiy narsalar yoki ma'naviy qadriyatlardan foydalanib, ularni xaqiqiy va doimiy deb xisoblaydi va doimo ularga ega bo'lishga intiladi. Bu intilish xayot davomiyligiga olib boradi. Yaxshi yoki yomon niyatlardan tuzilgan xayot daryosi, orzular va intilishlar sababli kelajak xayot uchun karma xozirlaydi. Demak, qayta tug'ilish, yangitdan qiynoqlarga duchor bo'lish davom etadi. Buddistlar fikricha Buddadan keyin hech kim Nirvana xolatiga erisha olmagan.

Uchinchi xaqiqat - "qiynoqlarni tugatish mumkin". yaxshi yoki yomon niyatlar, intilishlardan butunlay uzilish Nirvana xolatiga to'g'ri keladi. Bu xolatda inson qayta tug'ilishdan to'xtaydi. Nirvana xolati buddistlar fikricha "Xayot g'ildiragidan" tashqariga chiqish. "Men" degan fikrdan ajralib, insonning xissiy tuyg'ullarini to'la tugatishdir.

To'rtinchi xaqiqat - qiynoqlardan qutilish yo'li mavjuddir. Bu yo'l - "Sakkizta narsaga amal qilish, to'g'ri tushunish, to'g'ri harakat qilish, to'g'ri muomalada bo'lish, fikrni to'g'ri jamlash". Bu yo'ldan borgan inson Budda yo'lini tutadi.

Bu sakkiz narsaga amal qilish meditatsiya deb nomlanadi. Buddizm ta'limoti asosan uch qismdan iborat: 1. meditatsiya; 2. axloq; 3. donolik.

1. Meditatsiya.

1. To'g'ri tushunish;
2. To'g'ri niyat qilish;
3. To'g'ri o'zini tutish
4. To'g'ri anglash
5. To'g'ri harakat qilish
6. To'g'ri muomalada bo'lish
7. To'g'ri fikr yoritish
8. To'g'ri gapirish

2. Axloq normalari - Budda "Pancha SHila" besh nasixati,

9. Qotillikdan saqlanish
10. O'g'rilikdan saqlanish
11. Gumroxlikdan saqlanish
12. YOlg'on, qalbaki narsalardan saqlanish
13. Mast qiluvchi narsalardan saqlanish
14. Tushdan keyin ovqatlanishdan saqlanish
15. O'yin - kulgudan saqlanish
16. Zebu-ziynat, atir-upalardan saqlanish;

3. Donishmandlik - bu buddizmning asosiy maqsadi bo'lib, narsalar tabiatini to'g'ri tushunish.

Ilk Buddizmning dxarmalar tabiati xaqidagi mavxum metafizik asoslari buddizmga ikki oqim "Xinayana" (kichik g'ildirak) va "Maxayana" (katta g'ildirak) yozaga kelishiga olib keldi.

Xinayana ta'kidlashicha dxarmalar tabiatini o'rganish va nirvanaga erishish ma'naviy yo'l bilan bo'ladi. Bu yo'l juda og'ir va faqat monaxlargina nirvana xolatiga etishi mumkin. Maxayana esa Budda tanasi jonzotlarni azobdan qutqarish uchun turli jonzot formasiga kirishi mumkin va xayot zanjiridagi barcha uni o'rganishi, anglashi mumkin deydi. Bu narsa cheksiz Budda ramlarini, xudolarni kelib chiqishga sabab bo'ldi. Bu xudolarga ishonish yo'llari barchaga mumkin. SHu sababli "Katta g'ildirak" deb nomlanadi.

4. Buddizmning tarqalishi.

Buddizmning yoyilishida Sangxa - buddizm jamoalarining roli katta bo'lgan. Ular yilning ob-xavosi yaxshi bo'lgan 9 oyida shaxarma-shaxar, qishloqma-qishloq yurib, ular axolisini buddizmga da'vat qilib ularga Budda ta'limotini o'rgatib yurishgan. Faqatgina Musson yomg'irlari tinmay quygan 3 oydagina o'z ibodatxonalarida muqim bo'lib ibodat bilan shug'ullanganlar.

Eramizdan avvalgi 273-232 yillarda xukmronlik qilgan Imperator Ashoka davri buddizmning keng xududga yoyilishiga katta imkoniyatlar yaratdi. Ashoka o'zining ilk xukmronlik paytidanoq buddizmga e'tiqod qila boshladi. U buddizmga, monaxlariga, ularning Xindiston bilan chegaradosh davlatlarga qilgan missionerlik harakatlariga xayrixoxlik qildi. Ular o'z da'vatlari asosida biron-bir erlik axoli yoki ruxoniylar tomonidan qarshilikka uchrasalar, ular xech qanday qarshi harakat qilmay, o'z yo'llarida davom etganlar. Agar maxalliy axoli tomonidan o'zlariga nisbatan xayrixoxlik sezsa, o'sha erga ko'proq ahamiyat berib, ularni ko'proq da'vat qilishgan.

Buddizm jamoalari xar qanday boshqa din, madaniyat yoki urf-odatlar qamrovida yoki aralashuvda bir necha yuz yillab o'zlarini saqlab qolish, hamda fursat kelganda ularga o'z ta'sirlarini o'tkazish qobiliyatiga egadirlar. Ularni bu xususiyatlari Xindistonda musulmon xukmdorlar davrida, SHri-Lankada portugallar, gollandlar va inglizlar mustamlakasi davrida, Xitoy va YAponiya konfutsianlari davrida, Janubi-SHarqiy Osiyoga buddizmning yoyilishida yaqqol namoyon bo'lgan.

SHunday qilib, buddizm eramizdan avvalgi 1 ming yillik oxirlarida SHri-Lankaga va O'rta Osiyo, Markaziy Osiyo, hamda Old Osiyoni o'z ichiga olgan Kushon imperiyasiga kirib keldi. Bizning diyorumizda olib borilgan arxeologiya qazish ishlari asnosida ora tepa, Dalvarzin tepa, uva, Zartepa, g'orovultepa, Ayrito mavzellaridan topilgan. SHak'yamuni sanamlari, xayvon xaykalchalari, ramziy g'ildiraklar va stupa qoldiqlarining guvoxlik berishicha Kushon imperiyasida buddizmga katta ahamiyat berilgan.

Buddizm eramizning 1 asrida Xitoyga, IV asrda Koreyaga, VI asrda YAponiyaga, VII asrda Tibetga, XIII asrdan XVI asrgacha Mongoliyaga, XVII asrdan XVIII asrlargacha Buryatiya va Tuvaga, XIX-XX asrlarda Amerika va Evropa qit'alariga kirib borgan.

Buddizm o'z ta'limotida xech qachon boshqa xudolarga sig'inishni ta'qiqlamagan. Balki ularga ibodat qilish insonga vaqtincha tasalli berish mumkin. Biroq, nirvana xolatiga olib bormaydi deb aytgan. SHu sababli buddizm ta'limoti turli joylarda yoyilishi bilan ular ibodat qilib kelgan xudolari yoki ulug'langan shaxslari timsollari ibodatxonalarni egallagan.

Masalan, Xindistonning buddizmga mansub xudolari "dunyoni yaratuvchi Braxma", "chaqmoq va momaqaldiraq xudosi Indra", "xunarmandchilik ishlari xudosi Xatimanu", Tibetda: "Tibet eposi qaxramoni Baser" timsoli, Mongoliyada CHingizxon kabi milliy panteon buddizm iloxlari sifatiga aylandi. Biroq bu panteonlar Nirvana xolatiga olib bormaydi. Faqatgina Budda nirvanaga olib boradi va insonni qiynoqdan qutqaradi.

Buddizm manbalari. Buddizm ta'limoti bir qator devon shakliga keltirilgan to'plamlarda bayon qilingan. Ulardan eng asosiysi Tripitaka (yoki Tipitaka)- uch savat ma'nosini anglatadi. U uch qismdan iborat bo'lganligi uchun shunday nom bilan atalgan. Buddizmning bu yozma manbasi xozirgi davrda SHri-Lankada saqlanib qolgan. U eramizning boshlarida shakllangan. Ular - budda targ'ibotining xaqiqiy bayoni xisoblangan sutra matnlari (sutta-pitaka), raxboniylik axloqi va xonaqoxlar nizomlariga bag'ishlangan vinaya matnlari (vinaya-pitaka), buddizmning falsafiy va psixologik muammolarini bayon qilib berishga bag'ishlangan abxidxarma matnlari(abxidxarma-pitaka)dan iborat. Keyinchalik shakllangan sanskrit, xitoy, tibet, kxmer va yapon tillaridagi buddaviylikka oid adabiyotlar ancha keng tarqalgan, ammo ularning tarixiy qiymati kamroq. Budda xayotiga tegishli rivoyatlarning barchasi Tripitakada jamlangan.

TARQATMA MATERIALLAR:

БУДДИЗМ ТАЪЛИМОТИДА**Тўрт ҳақиқат**

1 - ҳақиқат – азоб-уқубат мавжуддир.



2 - ҳақиқат – қийноқларнинг сабаблари мавжуддир.



3 – ҳақиқат – қийноқларни тугатиш мумкин.



4 – ҳақиқат – қийноқлардан қутулиш йўли мавжуддир.

БУДДИЗМ ТАЪЛИМОТИ

↓

Ҳар қандай нарса ҳодиса **дхарма** (элемент)лардан ташкил топган. Улар ҳаракатсиз.

↓

Дхармаларни қўзғатувчи куч инсоннинг **хаёл** ва **сўзлари**.

↓


Объектив ҳақиқат доимий равишда ўзгариб турувчи дхармалар оқимидир.

↓

Ҳаракатдаги **дхармалар** мавжудлигини **5 шакли** – тана, сезги, ҳис-туйғу, ҳаракат, англашни яратади. 5 шакл инсонни ташкил этади.

↓

Инсонни ташкил этувчи 5 шакл қайта туғилади ва янги танага хос 5 натижа фаолият, гумроҳлик, хоҳиш, истак, меъёрни беради.



БУДДИЗМ ТАЪЛИМОТИ

4 – ҳақиқат – қийноқлардан қутулиш йўли мавжуд.

Бу йўл саккизта нарсага амал қилиш.

Тўғри тушуниш

Тўғри ҳаракат

Тўғри муомалада
бўлиш

Фикрни тўғри
жамлаш

Тўғри ният қилиш

Ўзини тўғри тутиш

Тўғри ҳаёт
кечириш

Тўғри гапириш

Буддизм таълимоти уч амалиёт босқичидан иборат.

Натижа

1. Ахлоқ
нормалари –
“Панча шила” –
(Будданинг беш
насиҳати).

2. Медитация.

3. Дониш -
мандлик.

1) қотилликдан
сақланинг;
2) ўғрилиқдан
сақланинг;
3) гумроҳликдан
сақланинг;
4) ёлғон, қалбаки
нарсалардан
сақланинг;
5) Маст қилувчи
нарсалардан
сақланинг.

1) Тўғри тушуниш (4
ҳақиқатни);
2) Тўғри ният қилиш;
3) Тўғри тутиш ҳаракат
қилиш;
4) Тўғри англаш;
5) Тўғри ҳаракат нима;
6) Тўғри ҳаёт кечириш;
7) Тўғри фикр юритиш;
8) Тўғри гапириш.

Бу
буддизмнинг
асосий
мақсади:
нарсалар
табиатини
тўғри
тушуниш.

НИРВАНА - ҲОЛАТИ

**БУДДА ТАЪЛИМОТИ
МАНБАЛАРИ.**

Муқаддас китоблари Трипитака – уч сават.
Қўлёзма нусхаси Шри Ланкада бор.

Сутра питака

Виная
питака

Абхидхарма
питака

Сутра матнлари –
Будда
тарғиботининг
асосий баёни.

Виная матнлари –
роҳиблар ахлоқи,
хонақола
низоми.

Абхидхарма
матнлар
фалсафий,
психологик

БУДДИЗМ

↓

Мил. ав. VI-V асрда Ҳиндистонда Сиддхарта Гаутама – Будда (нурланган) томонидан асосланган энг қадимий жаҳон лини.

↓

- Инсон туғилиши ва ўлим машаққатлилардан қутулиш учун амал қилиш лозим бўлган кўрсатмаларни ишлаб чиққан.
- Инсон ҳаёли, ишлари, ўзини тутишида **самимий олийжаноблик** ғоясини илгари суради.
- Ведалардаги гуноҳсизлик таълимотини инкор этади.
- Ҳайвонларни ваҳшиёна қурбон қилишни қоралайди.
- Каста тузуми ва брахман руҳонийларининг бошқалардан устунлигини инкор этади.
- Яратувчи олий куч борлиги шубҳа билдиради. Энг асосий инсоннинг шахсий камолоти ва эзгу турмуш тарзи.
- “ҳаёт – бу азоб – уқубат” ва ўзини – ўзи ҳалок қилади ёки қутқаради. 4 ҳақиқат.





O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

- 1 Buddizmning asoschisi kim?
- 2 Buddaviylik qaysi davrda va qaerda vujudga keldi?
- 3 Buddaviylikning xayot xaqidagi ta'limoti qanday?
- 4 Buddaviylik qaysi davrda keng yoyildi?
- 5 Xozirgi paytda qaysi mamlakatlarda buddaviylik keng tarqalgan?
- 6 Buddaviylikning muqaddas kitobi qaysi?

Adabiyotlar:

1. Jo'raev U. Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. T.,1998.
2. Менъ А. Istoriya religii. M.,1994.
3. Mifi narodov mira. V 2-x tomax. M.,1973.
4. Osnovi religiovedeniya. Uchebnoe posobie dlya studentov vusxix uchebnix zavedeniy. Pod obsh.red. M.N.YAblokova. M.,1995.
5. Radugin A.A. Vvedenie v religiovedenie: teoriya, istoriya i sovremennye religii. M.,1996.
6. Religiozniy traditsii mira. V 2-tomax. M.,1996.
Religiozniy traditsii mira. Buddizm, iudaizm, xristianstvo, islam.
Spravochnik shkolnika. Bishkek,1997.
7. Vasilev A.S. Istoriya religiy Vostoka. M.,19997
8. Krivelev I.A. Istoriya religiy. M., 1989.